

**MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH AFZALLIKLARI****Qodirova Munira Rustamovna***Navoiy viloyati Zarafshon shahar 10-umumta'lim maktab
matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada matematika darslarida kompyuter texnologiyasidan unumli foydalanish jarayonida o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilib borish kerakligi haqida va kompyuterda berilayotgan topshiriqlarni bola bilim saviyasiga moslashtirish o'quvchilarni mavzuni tez o'zlashtirishlarida muhimligi to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *kompyuter, metod, individual, dars.*

Kompyuterli ta'limda o'quvchilar faoliyatini individuallashtirish prinsipiga amal qilish imkoniyatlari keng bo'lib, uni alohida talab sifatida ko'rsatish lozim. Ta'limni individuallashtirish orqali o'quvchining ichki olamiga yo'l ochiladi, unda shaxsiy sifatlar - o'ziga ishonch, qat'iylik tarbiyalanadi. O'qituvchi o'quvchining tayyorgarlik darajasi, ishlash sur'atini hisobga olib, o'z faoliyatini bola faoliyatiga muvofiqlashtiradi. Bu ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi". O'qituvchi faoliyatining bu funksiyalarini kompyuter zimmasiga yuklash mumkin. Boshqacha aytganda, kompyuterli ta'limdamazkur prinsipni amalga oshirish imkoniyatlari katta. Kompyuterli ta'limda nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi prinsipiga ham rioya qilish lozim degan talabni qo'yish kerak. Nazariyaning amaliyot bilan aloqasi prinsipida ta'lim va tarbiyani hayot bilan, amaliyot bilan mustahkam bog'lanishda amalga oshirishdek hayotiy ehtiyoj, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish qonuniyatlari aks etadi.

Kompyuter ekranida bayon qilinayotgan ma'lumot mazmunining o'quvchilarga loyiq bo'lishi va kompyuter talab qiladigan topshiriqlarni bajarishda ma'lum tirishqoqlik talab qilinishi bilan bog'liq bo'lgan tushunariligi prinsipiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. "Ta'limning tushunariligi deganda, o'quv materiali mazmuni, xarakteri va hajmining o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga va ularning bilish imkoniyatlari rivojlanganligiga mos kelishi tushuniladi". Tushunarlilik prinsipi kompyuterli ta'limda bajarilishi shart. Bunday noto'g'ri tushunish va o'quv materiali mazmuni, unga mos topshiriq va savollarni yengil, yuzaki qilib tuzish hamda ta'limga tatbiq etish juda salviy natijalarga olib kelishi mumkin. "Bola hamma narsani osongina uddalayversa, unda asta-sekin tafakkur tanballigi hosil bo'lib, odamni yo'ldan chiqaradi, turmushga yengiltak munosabatni shakllantiradi. Ajablanarlisi shundaki, tafakkur tanballigi ko'pincha qobiliyatli bolalarda ham uchraydi: ta'lim jarayonidagi tanballik bolalarning kuchi yetadigan darajadagi qiyinchiliklarga rioya qilib ta'lim tashkil etilmaganda rivojlana boshlaydi".

O'quvchilarning kuchi yetadigan qiyinchilik ularni tarbiyalash, yashash, kurashga o'rgatishning yetakchi omillaridan hisoblanadi. Zero, qiyinlik sub'ektiv hodisa bo'lib, uni yengish, bartaraf etishga intilish o'quvchida chidam, sabr-toqat, mashaqqatlardan qo'rqmaslik kabi shaxsiy sifatlarini tarbiyalash, kamol toptirishdahal qiluvchi

ahamiyatga ega. Tushunarlik prinsipi ta'lim jarayonining o'quvchilar uchun juda yengil ham, juda qiyin ham bo'lmasligini talab qiladi. Chunki o'qitishning osonligi faqat aqliy faollikni pasaytirmasdan, o'qishga qiziqishni ham susaytiradi.

Umumiy o'rta ta'limda o'quv fanlarini o'qitishdagi o'zaro bog'lanish va bu ishni nechog'lik mohirlik bilan amalga oshirish muhim ta'limiy ahamiyatga ega. Zero, fanni keng va chuqur doirada bilish o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni to'g'ri tahlil qila bilish, ularni turli munosabat va vaziyatlarda ko'ra olish, ularning ilmiy, asosli xulosalar chiqara olishini talab qiladi. Matematika o'quv predmeti bo'yicha bayon qilinadigan o'quv materialini matnida, bajariladigan topshiriqlar, beriladigan savollar mazmunida ifodalanadigan bilimlar turli fanlarga taalluqli bilimlar bilan uyg'unlashib borgandagina chuqur va mustahkam o'zlashtiriladi.

O'quv materialini mazmunida ham fanlararo, ham fan ichidagi bog'liqlikni yoritish o'quvchilarda taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi malakalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kompyuterli ta'limda ham fanlararo, ham fan ichidagi bog'liqlikni ta'minlash prinsipini amalga oshirish shart degan talabni qo'yish joiz.

Turmushga bog'lab bilim berish hamda egallangan bilimlarni ishlab chiqarish, amaliyotga tatbiq etish boshqa-boshqa hodisalar bo'lsa-da, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'limni turmush bilan bog'lash vazifasi kompyuter ekranida tasvirlanadigan o'quv materialini matn, topshiriqlar, savollar mazmunida milliy qadriyatlarimizning aks etishini taqozo qiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib, biz o'quv materialini mazmunida milliylik, e'tiqodlilik, odob-axloqqa undovchi fikrlarning aks etishini, Vatanga, ota-onaga, ilmga muhabbatning ifodalanishini, tabiat, hadislar, iqtisodiyot kabi tushunchalar bilan bog'liq fikrlarning bayon etilishini lozim deb bilamiz.

Kompyuterli ta'lim ta'limning boshqa turlari - muammoli, topshiriqli, izohli-ko'rgazmali, tabaqalashgan ko'rinishlari, an'anaviy ta'lim vositalari, usullari, tashkiliy shakllarini inkor qilmaydi. Shu bilan birga kompyuterli ta'limning o'zigagina oid xususiyatlari ham mavjud. Bu xususiyatlarni ajratish va ularni alohida tahlil qilish uchun o'qituvchi faoliyati - o'qitishni kompyuter vositasida ta'lim berish bilan qiyoslaymiz. O'qituvchi u yoki bu o'quv materialini bayon qila turib, o'quvchilarni o'z fikriga ishonitirishga, ularning hayratlanishiga, savol, topshiriqlarga qiziqishiga, ta'limda motiv, hissiyotlarni ishlatishga, o'z his-tuyg'ulari bilan o'quvchilarda ta'limga ehtiyojni oshirishga intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007.
2. Yusupov A. Ye. Matematik kechalar.- Toshkent: "O'qituvchi", 1977.
3. Abdurahmonov B., Matematik induksiya metodi Toshkent, 2008 .
4. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari.- T.: 2010.